

MAHALLADA BAYRAM TADBIRI



MAHALLADA BAYRAM TADBIRI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-134-sonli "2022 yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida" qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Devayron mahalla fuqarolaryig'ini yoshlar yetakchisi tashabbusi bilan mahallada "Qadriyat, urf-odat, an'ana va yoshlar" tadbiri bo'lib o'tdi.

Tadbirda ishtirok etgan yoshlar apqon tortish, tosh ko'tarish musobaqalari bo'yicha o'zaro kuch sinashdi. Shuningdek, yoshlar o'rtasida o'tkazilgan yosh qo'shiqchi, she'rxonlik tanlovlari ishtirokchilarga ko'tarinkilik baxsh etdi.

Tadbirda 200 nafardan ortiq uyushmagan yoshlar vakillari va maktab o'quvchilari ishtirok etishdi.

Tadbir so'ngida musobaqa va tanlov g'oliblari munosib taqdirlandi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-03-11 18:06:50